

OILA SOG'LIG'INI SAQLASH VA VOYAGA YETMAGANLARNING TIBBIY HUQUQLARI

*Islombekov Nodirbek
Raxmonova Dilshoda*

Annotatsiya: Har bir fuqaro davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taalluqli masalalar, o'zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar bor-yo'qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiy-ruhiy jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o'tish huquqiga ega.

Kalit so'zlar: Oila, voyaga yetmaganlar, bolalar, tibbiy yordam, huquq, erkinlik

Har bir oila o'ziga oilaviy shifokor tanlash huquqiga ega.

Bolali oilalar fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. (18-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Uch yoshga to'lmagan bolalar, shuningdek shifokorlarning xulosasiga ko'ra qo'shimcha qarovga muhtoj bo'lgan katta yoshdagi kasali og'ir bolalar statsionar shifoxonada davolanayotganida ularning otasi yoki onasiga yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga davolash muassasasida uning yonida birga bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi va mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Voyaga yetmaganlar — amaldagi O'zR qonunchiligiga ko'ra, 18 yoshga yetmagan fuqarolar. V.ye.ni tarbiyalash vazifasi — davlat burchi, fuqarolarning esa konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. O'zR Konstitutsiyasida fuqarolar kabi V.ye.ning bilim olish, mehnat qilish, dam olish, mulqdor bo'lish kabi huquqlari ta'minlangan (36,40,41-moddalar). O'zbekiston Respublikasi FKda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan Voyaga yetmaganlarning muomala layoqati belgilangan, ular ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va homiylari roziligisiz mustaqil ravishda: 1) o'z ish haqi, stipendiyasi va b. daromadlarini tasarruf etish; 2) fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasining muallifi huquqini amalga oshirish; 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish; 4) mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzishga haqqi ekanligi ko'rsatilgan, boshqa bitimlarni ular o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Ular roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoki mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan 16 yoshga to'lgan Voyaga yetmaganlar muomalaga to'la layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin (27-, 28-, 29-moddalar).[4]Voyaga yetmaganlar mehnatga oid munosabatlarda katta yoshdagi xodimlarga tenglashtiriladi, lekin mehnat muhofazasi, ish vaqti, ta'tillar berish va b.

mehnat shartlari bo'yicha qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadi. O'zR Mehnat kodeksida 18 yoshga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar, ularning mehnatga oid huquqlari va h.k. belgilab berilgan (239—247-moddalar). V.ye.ning jinoiy ishlarini yuritishda maxsus qonun me'yorlari orqali qo'shimcha huquqlar kafolatlangan (qarang Voyaga yetmaganlar javobgarligi). O'zR Vazirlar Mahkamasi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari huzurida Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar tuzilgan.

Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi.

Davlat bolalarga qonunchilikka muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:[3]

14 yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon etkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa eksperimentlar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarni ko'radi. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, homiylik va boshqa jamg'armalarning mablag'lari hisobidan, shuningdek ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning mablag'lari hisobidan ijtimoiy muhofaza tizimi muassasalarida saqlanishlari mumkin.[2]

Voyaga yetmaganlarning huquqlari. Davlat voyaga yetmaganlarning sog'liqni saqlash huquqlarini ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishi uchun, kasalliklarning oldini olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda va boshqa muassasalarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish orqali ta'minlaydi. (19-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda O'RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)

Voyaga yetmaganlar quyidagi huquqlarga ega:

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda dispanser nazoratida bo'lish hamda bolalar va o'smirlarning davolash-profilaktika muassasalarida davolanish;

sanitariya-gigiyena ta'limi olish, o'qish hamda o'zlarining fiziologik xususiyatlari va sog'lig'iga mos sharoitlarda mehnat qilish;

kasbga yaroqliligini aniqlash chog'ida budget mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahatlar olish;[1]

sog'liqlari to'g'risida o'zlari uchun qulay tarzda zarur axborot olish.

O'n to'rt yoshdan oshgan voyaga yetmaganlar ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

(19-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-apreldagi 772–I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 124-modda)

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor voyaga yetmaganlar ota-onalarining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko‘ra budget mablag‘lari, xayriya jamg‘armalari va boshqa fondlarning mablag‘lari, shuningdek ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mablag‘lari hisobidan ijtimoiy himoya tizimi muassasalarida yashashlari mumkin.

Xulosa:

Ota-onalar yoki boshqa shaxslarning o‘z tarbiyasidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini buzishlari, ularni tarbiyalashdan bo‘yin tovlashlari, voyaga yetmaganlar bilan ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan darajada shafqatsiz munosabatda bo‘lishlari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистонда тез тиббий ёрдам хизматида янги тизим йўлга қўйилади“. Bugun.uz. 10-iyul 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2021-yil 27-fevral. Wayback Machine saytida arxivlandi (2021-07-10)
2. www.lex.u[2]
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2018 yil 16 oktyabr[3]
4. A.I.Iskandarov, D.R.Qoldoshev "SUD TIBBIYOTI" Tibbiyot instituti talabalari uchun darslik[4]
5. Allaberganov Azizbek Saparbayevich. (2023). SHIFOKOR – TIBBIYOT XODIMLARI – BEMOR MUNOSABATLARINING XUSUSIYATLARI. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI*, 2(2), 208–211. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/5963>[4]
5. Allaberganov Azizbek Saparbayevich, Safarniyozova Dinora, Alimova Komila, & Rasulov Ma‘murjon. (2023). FUQAROLARNING TIBBIY IJTIMOIIY YORDAM OLISH HUQUQI. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIIY JURNALI*, 2(2), 223–227. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/5966>[5]
7. Эркинов Жахонгир Хайрулла Угли, & Аллаберганов Азизбек Сапарбоевич (2023). МЕСТО СОЦИОЛОГИИ МЕДИЦИНЫ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО ЗНАНИЯ. *Та‘лим fidoyilari*, 14-02 , 16-18[7]
8. Toxirova Nigina Toxirovna, & Аллаберганов Азизбек Сапарбоевич (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR SOTSIOLOGIYASI. *Та‘лим fidoyilari*, 14-02 , 12-15.[8]
9. Ш. С. Шаниязов, & А. С. Аллаберганов (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА БИОЭТИКАНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference* (2), 95-97[9]